

**TOVAR BELGILARINING TADBIRKORLAR VA
ISTE'MOLCHILAR O'RATASIDAGI MUNOSABAT VOSITASI
SIFATIDAGI O'RNI**

Baratova Sabina Maxkamovna

Toshkent davlat yuridik universiteti magistri

Email: sabinabaratova99@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqola O'zbekiston Respublikasida tovar belgilaridan tijorat muomalasida foydalanish ayrim masalalarining xalqaro va xorijiy tajribalar asosida chuqur tahlil qilish hamda mazkur sohadagi qonunchilikni qo'llash bilan bog'liq kamchiliklarni aniqlash, jahon standartlariga moslashtirish imkoniyatlarini tadqiq etishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: tovar belgisi, tadbirkor, iste'molchi, tijorat muomalasi, intellektual mulk, talabnoma, konvensiya, firma.

**МЕСТО ТОВАРНЫХ ЗНАКОВ КАК ИНСТРУМЕНТА
ВЗАИМООТНОШЕНИЙ МЕЖДУ БИЗНЕСОМ И ПОТРЕБИТЕЛЯМИ**

Баратова Сабина Махамовна

Магистр Ташкентского государственного юридического университета

Электронная почта: sabinabaratova99@gmail.com

Аннотация: целью данной статьи является проведение глубокого анализа некоторых вопросов, связанных с использованием товарных знаков в коммерческом обороте в Республике Узбекистан на основе международного и зарубежного опыта, выявление недостатков в применении законодательства в этой сфере, а также исследование возможностей его адаптации к мировым стандартам.

Ключевые слова: товарный знак, предприниматель, потребитель, коммерческая сделка, интеллектуальная собственность, заявка, конвенция,

фурма.

**THE ROLE OF TRADEMARKS AS A MEANS OF INTERACTION
BETWEEN ENTREPRENEURS AND CONSUMERS**

Baratova Sabina Maxkamovna

Master's student of Tashkent State University of Law

Email: sabinabaratova99@gmail.com

Abstract: *the purpose of this study is to conduct an in-depth analysis of certain issues related to the use of trademarks in commercial transactions in the Republic of Uzbekistan, based on international and foreign experience, and to identify shortcomings in the application of relevant legislation.*

Keywords: *trademark, businessman, consumer, commercial turnover, intellectual property, application, convention, company.*

Hozirgi davr raqamli texnologiyalar asri ekanligi sabab jahon iqtisodiyoti va taraqqiyotida naqadar shiddat bilan jadallashish jarayonlari kechmoqdaki, yaqin bir asr ichida paydo bo'lgan ixtiro va kashfiyotlar bugunga kelib eskilikka, kelajak texnologiyalari haqidagi turli qarashlar esa insoniyat ko'z ongida, o'z navbatida, haqiqiy reallikka aylanib bormoqda. Shu kabi jihatlarni hisobga olib, jahonda tovar belgilarining huquqiy maqomini belgilash, undan tijorat maqsadida foydalanishga doir jarayonlarni takomillashtirish, huquqiy mexanizmlarini belgilash zaruriyati xo'jalik subyektlari tomonidan tovar ishlab chiqarish va uning realizatsiyasi jarayonida juda aktualdir. Jumladan, tovar belgilaridan tijoriy maqsadlarda noqonuniy foydalanishda aniqlanadigan kontrafakt mahsulotlari oldi-sotdisi allaqachon bozorda bo'lgan tovar belgilarini o'zlashtirish kabi huquqbuzarliklar tovar belgisini qadrsizlantirish, bozordagi imidjiga salbiy ta'sir o'tkazish, obro'sini tushirish, shu jumladan, mamlakatning jahon miqyosidagi o'rniga salbiy ta'sir etish

orqali xalqaro savdoda bozordan “ortda” qolishiga sabab bo‘ladigan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy xavfli signal sanaladi. Fikrimizga asos sifatida, iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti statistikasiga murojaat qilsak, bojxona organlari tomonidan olib qo‘yilgan tovarlar birgina 2020-yilning o‘zida jahon bo‘ylab kontrafakt tovarlarning xalqaro savdosi taxminan 509 milliard dollarni tashkil etib, mazkur ko‘rsatkich jahon tijorat hajmining 3,3 foizi¹ni tashkil qilgani mavuning dolzarbligini ko‘rsatadi. Kontrafakt tovarlarni ishlab chiqarish va realizatsiyasining asosiy qismi Turkiya, Xitoy, Singapur, Gonk-Kong davlatlari hissasiga to‘g‘ri keladi². Masalan, rivojlangan mamlakat Xitoy misolida qarasak, 4 milliondan ortiq elektron tijorat savdo platformalari orasidan 2020-yil oktyabr – dekabr oylari mobaynida 23,100 ta kontrafakt tovarlar sotilgani aniqlangan³. Statistikalardagi bu raqamlar soni yildan-yilga ortib borishi tovar belgilaridan tijorat muomilasida noqonuniy foydalanishlar soni keskin ko‘tarilayotgani, amaliyotda sohani tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlar qayta ishlab chiqishga muhtojligini anglatadi.

Mamlakatimizda tovar belgilarini tartibga soluvchi qator asosiy normativ huquqiy hujjatlar normalar negizini O‘zbekiston ratifikatsiya qilgan TRIPS kelishuvi, Parij konvensiyasi, Singapur shartnomasidagi standartlar tashkil etadi. Biroq alohida qayd etish joizki, mazkur standartlarga muvofiqlik belgisi to‘liq tartibga solinmagan bo‘lib amaliyotda mazkur sohaga doir qonunchilikni qo‘llashda muammolar kelib chiqmoqda. Bu O‘zbekistonning investisiyaviy

¹ Organization for Economic Co-operation and Development (OECD) and European Union Intellectual Property Office (EUIPO) (2019), Trends in Trade in Counterfeit and Pirated Goods, available at: <https://doi.org/10.1787/g2g9f533-en>.

² [www.oecd-ilibrary.org/docserver/g2g9f533-](http://www.oecd-ilibrary.org/docserver/g2g9f533-n.pdf?expires=1644816653&id=id&accname=guest&checksum=0DEF081DE55132AC5B985E83805289C4)

[n.pdf?expires=1644816653&id=id&accname=guest&checksum=0DEF081DE55132AC5B985E83805289C4](http://www.oecd-ilibrary.org/docserver/g2g9f533-n.pdf?expires=1644816653&id=id&accname=guest&checksum=0DEF081DE55132AC5B985E83805289C4).

³ www.wipo.int/edocs/mdocs/enforcement/en/wipo_ace_od_1/wipo_ace_od_1_2.pdf.

jozibardorligini oshirish, shuningdek, tovar bozorida sog'lom raqobatning qaror topishiga to'sqinlik qilibgina qolmasdan mamlakatimizning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonining ortga surilishiga sabab bo'lmoqda. Yuqoridagi tahlillardan xulosa sifatida, tovar belgilaridan tijorat maqsadlarida foydalanishni amalga oshirishga doir milliy qonunchilik, shuningdek, huquqni qo'llash amaliyotini yanada takomillashtirish va soha istiqbollarini belgilash dolzarbdir.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining Innovatsion rivojlanish strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-iyuldagi “Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” PQ-3855-son qarori, 2019-yil 30-oktabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida”gi, 2020-yil 24-iyuldagi “Innovatsion faoliyat to'g'risida”gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi PQ-221-son qarori bilan tasdiqlangan 2022–2026 yillarda O'zbekiston Respublikasida Intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasi, “Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida”gi, “Raqobat to'g'risida”gi, “Firma nomlari to'g'risida”gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni, “Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”, “Intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi va “Intellektual mulk

ob'yektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari, shuningdek, mavzuga doir boshqa sohaviy normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda sohaviy tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Bugunga kelib tovar belgilarining tijorat maqsadida foydalanishdagi fuqarolik-huquqiy jihatlarining ayrim masalalari mamlakatimiz olim va tadqiqotchilaridan Z.Q.Babakulov, O.Oqyulov, N.F.Imomov, I.R.Rustambekov kabi olimlarning ilmiy ishlarida muayyan darajada ko'rib chiqilgan. Tovar belgilaridan foydalanishni fuqarolik-huquqiy tartibga solish masalalari X.A.Rahmonqulov, I.B.Zokirov, I.I.Nasriyev, N.F.Imomov, X.T.Azizov, D.A.Ogay, B.U.Axmadjonov, S.M.Safoyeva, Z.S.Akramxodjaeva va boshqalarning ilmiy ishlarida muayyan darajada ko'rib chiqilgan.

MDH davlatlarida tovar belgilarining fuqarolik-huquqiy maqomi va unga nisbatan huquqlarni amalga oshirish masalalari O.A.Kurlaev, R.A.Xasanov, A.D.Kudakov, V.V.Pirogova, Ye.S.Rogachev, S.V.Lovtsov, N.M.Dobriden, A.K.Shulga; tovar belgilarini muhofaza qilish va huquqiy javobgarlik masalalari Ye.S.Shpak, Ye.A.Danilina, P.V.German, I.A.Petrov, A.M.Goroxov, A.B.Rabets, N.Yu.Medvedov, Ye.A.Jalnina; tovar belgilarining shaxsiylashtirishning boshqa vositalari bilan o'zaro bog'liqligi masalalari T.A.Vaxnina, A.A.Ageenko, V.V.Orlova, I.V.Bistrushkina, A.S.Eshich, P.V.Sadovskiy; hammaga ma'lum tovar belgilarining maqomi Y.A.Zaytseva, M.V.Evdokimova, A.G.Prokopev kabi olim va tadqiqotchilar tomonidan samarali tadqiqot ishlari olib borilgan.

Xorijiy davlatlarda tovar belgilari munosabatlarini huquqiy tartibga solish masalalari AQSH, Nyu York universitetidan olimlar David Hal Bernstein, Barton

Beebe, Joel H. Steckel, Robert C. Bird, Richard M. Andrede, Rebecca Tushnet, B. Dinwoodie, AQSHdagi Pensilvaniya universitetidan A. Nicholas Falkides, AQSH, Kaliforniya, Berkeley universitetlaridan Mark P. McKenna, Gollandiya, Leiden universitetidan Dirk Visser, Shvetsiya Lund universitetidan Phan Ngoc Tam hamda Buyuk Britaniya, Manchester universitetidan Ozgur Arican, Dima Basma kabi olimlar tovar belgisining huquqiy maqomi va undan foydalanish borasida tadqiqotlar olib borgan. Qayd qilingan olimlarning izlanishlariga asosan tovar belgilariga oid huquqiy munosabatlarning alohida turlari va jihatlariga bag'ishlangan bo'lib, tijorat muomilasida foydalanishning huquqiy tartibotiga qaratilmagan. Shu sababli tovar belgilaridan tijorat muomalasida foydalanishni huquqiy tahlil etish hozirda dolzarbdir.

Tadqiqotimizga ko'ra, tovar belgilariga faqat intellektual mulk obyekti sifatida emas, balki tadbirkorlik faoliyati ishtirokchilari o'rtasida vujudga keluvchi huquqiy munosabat obyekti sifatida ham tan olish va shu sababli sohani tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar bazasini zamonaviy tadbirkorlik tendensiyalariga muvofiq qayta ko'rib chiqish lozim deb hisoblaymiz. Tovar belgilaridan tijorat muomalasida foydalanishda ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajaradi. Zotan, tadbirkorlik subyekti tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovar yoki mahsulotning xususiyatlari, bozordagi o'rni va pozitsiyasi, afzalliklari, umuman olganda, Tovar brendini belgilab beruvchi vosita sifatida Tovar belgisi maydonga chiqadi. Kelgusida sohani tartibga solishda tovar belgilariga intellektual mulk obyekti sifatidagi pozitsiyasidan tashqari tadbirkorlar va iste'molchilar o'rtasidagi oldi-sotdi munosabatlarning obyekti sifatida ham baholansa maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi //www.lex.uz.
2. Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasi //www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2006. – №51-52. 515-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi mazkur Shartnomaga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998-yil 1 maydagi 630-I-sonli qaroriga muvofiq qo'shilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. – 1998. – №5-6. 111-modda.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining Innovatsion rivojlanish strategiyasi //www.lex.uz.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi PQ-221-son qarori bilan tasdiqlangan 2022–2026 yillarda O'zbekiston Respublikasida Intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasi //www.lex.uz.
7. O'zbekiston Respublikasining “Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida”gi Qonuni //www.lex.uz.